

O'qish savodxonligi

I qism

3



UO'K 808.545(075.3)
KBK 74.202.5ya72
T 60

M.E.Toirova
O'qish savodxonligi. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining
3-sinfi uchun darslik, I qism. / M.E.Toirova – Toshkent. "Novda
Edutainment", 2023. – 80 b.

Taqrizchilar:

- Sh.Y.Muslimova** – Toshkent shahri 328-umumiy o'rta ta'lim maktabi oliy toifali boshlang'ich sinf o'qituvchisi;
- M.I.Xujayeva** – Toshkent shahri 142-umumiy o'rta ta'lim maktabining 1-toifali boshlang'ich sinf o'qituvchisi.
- M.M.Umarova** – Toshkent shahri 222-umumiy o'rta ta'lim maktabining 1-toifali boshlang'ich sinf o'qituvchisi.

Shartli belgilar:



Yodda tuting



Guruh bo'lib ishleng



Savollarga javob bering



Diqqat bilan o'qing



Izohli lug'at



Tinglang



Bu qiziq!



Topshiriqni bajaring



Uyga vazifa

ISBN 978-9943-9684-3-1

© M.E.Toirova
© "Novda Edutainment", 2023

Hurmatli o'quvchi!

Hayotimizni badiiy adabiyotsiz tasavvur qilish qiyin. Badiiy asarlar insonning qalbiga bolaligidan ezgulik urug'larini sochadi, unga yaxshilik va yomonlik, odob va odobsizlik, mehr-oqibat va yovuzlik haqida ilk tushunchalarni o'rgatadi. Ertak, hikoya, topishmoq, she'r, maqol, tez aytishlar hayotimizning bir bo'lagidir. Ular bizning dunyoqarashimizni kengaytiradi, nutqimizni rivojlantiradi.

Aziz bolajonlar, mazkur kitobdan o'zbek va jahon ertaklari, she'rlar, tez aytish-u topishmoqlar, maqollar, qiziqarli boshqotirmalar o'rin olgan.

Hurmatli o'quvchilar! Mehr-oqibat, do'stlik, sadoqat singari go'zal insoniy fazilatlarga chorlovchi ushbu kitob sizlarga manzur bo'ladi, degan umiddamiz.







Ona yurtimizning go'zal va osmono'par binolari, yurtimiz sha'nini qo'riqlab, yigitlik burchini bajarayotgan askarlar, ko'chalarda yangrayotgan bolalarning shodon kulgisi nimaning ramzi deb o'ylaysiz?



1. Vatan va vatanparvarlik tushunchalarini qanday tushunasiz?
2. Vatanimiz gullab-yashnashi uchun biz qanday hissa qo'shishimiz mumkin?
3. Vatanga sodiq o'g'lonlar deb kimlarni aytamiz?
4. Vatan tinchligini buzayotgan kimsalarni qanday nom bilan ataydilar?



Ushbu so'zlarning ma'nosini izohlang.

Mahalla

Ona yurt

Iftixor

Tinchlik

VATAN

Or-nomus

E'tiqod

Imon

Oila

Omonat



Vatan madhi dillarda

Vatan! Bu so'z bizning qalbimizga ona allasidan, uning qaynoq muhabbatidan singadi. Agar ma'lum bir muddat o'z uyimizdan sal olisroqda yashab qolsak, ko'nglimiz g'ash bo'laveradi. Har qanday ko'ngilochar narsalar ham bizni quvontira olmaydi. Negaki, biz o'z go'shamizni qo'msay boshlaymiz. Bu Vatanni sevishning bir ko'rinishi emasmi?! Vatanga muhabbat, uni ardoqlash, ona Vatanga tegishli bo'lgan har bir narsani muqaddas bilish, o'zini shu Vatan kengliklariga daxldor deb his qilish haqiqiy insonlarga xos fazilatdir.

Aziz bolajonlar, mana, yana bir yoshga ulg'aydik. Orzu-o'ylarimiz, niyatlarimiz ham biz bilan qo'l ushlab bo'y cho'zmoqda. Ulg'ayganimiz sari qalbimizda, ongimizda yangi-yangi tuyg'ular uyg'ona boshlaydi. Vatanga muhabbat, ota-onaga hurmat, ajdodlarga nisbatan iftixor, mas'uliyat, ishonch kabi tuyg'ular qatoriga o'nlab, yuzlab tuyg'ularni kiritish mumkin. Bu tuyg'ularning asosi muhabbatdir. Bizni o'z quchog'iga olgan, tinch va osoyishta yashayotgan, ilm olayotgan Vatanimizni sevmay bo'ladimi?! O'zbekiston deya atalmish, bog'larida jannat shivirlaydigan serquyosh o'lkamizda dunyoni

qalam bilan tebratgan ne-ne shoirlar, o'z aqli bilan hozirgi kunda ham olam ahlini lol qoldirib kelayotgan olim-u fuzalolar yetishib chiqqan. Biz buyuk bobolarimiz bilan faxrlanamiz va ularga munosib avlod bo'lishga intilamiz.



1. Nima uchun matn "Vatan madhi dillarda" deb nomlangan?
2. Vatan deganda ko'z oldingizda nimalar gavdalanadi?
3. Buyuk bobokalonlarimizdan kimlarni taniysiz va ular haqida qanday ma'lumotlarni bilasiz? O'rtoqlashing.



1. Quyidagi rasmlardan matnga mos bo'lmaganini toping va javobingizni izohlang.



2. Vatan haqidagi maqollar qatorini davom ettiring.

Vatanning tinch – sen tinch.

Bulbul chamanni sevar, odam – Vatanni.

Begona tuproq – devona tuproq.



“Vatan – mening tasavvurimda” mavzusida hikoya yozing.



Mundarija

1-dars. Vatan madhi dillarda.....	6
2-dars. Salom, maktab!	10
3-dars. Opa-singillar.....	13
4-dars. Oyog'i osmonda bo'lgan sichqonlar.....	16
5-dars. Chin va Yolg'on.	21
6-dars. Kuz.....	24
7-dars. Bir-birin kuzatar fasllar.	27
8-dars. Tog'lar.	32
9-dars. Karim polvon.....	38
10-dars. Chorining qobiliyati. (<i>PIRLS</i>).....	42
11-dars. Hunarning hidi qanaqa?	47
12-dars. Baliq ovida.	51
13-dars. Odob.	56
14-dars. Insoniy fazilatlar to'g'risida maqollar.....	60
15-dars. Yaxshilik.	63
16-dars. Filipok.	67
17-dars. Dum-dumaloq qo'ng'iz.	71
18-dars. Uch ko'zli narsa to'g'risida.	74

veb-saytimiz: Zokirjon.com

Zokirjon.com veb-sayti orqali o'zingiz uchun kerakli ma'lumotlarni yuklab oling.

Zokirjon Admin bilan

90-530-68-66, 91-397-77-37 nomerga

murojaat qilishingiz, shu nomerdagi telegram orqali bog'lanishingiz nza456 yoki nza445 izlab telegramdan yozishingiz so'raladi.

Telegramda murojaatingizga o'z vaqtida javob beriladi

3-sinf o'qish savodxonligi I qism kitobini to'liq holda olish uchun telegramdan yozing.

Telegram kanalimiz:

[@Maktablar_uchun_hujjatlar](https://t.me/@Maktablar_uchun_hujjatlar)



DIQQAT!!!

Bu hujjatni hech kimga tarqatmaslik sharti bilan olishingiz mumkin.

Sizga bu **OMONAT qilib beriladi.**

To'liq holda olganingizdan so'ng:

Faqat o'zingiz uchun foydalaning.

Hech kimga bermang hattoki eng yaqin insoningizga ham.

Internet veb-saytlarga joylamang.

Telegram orqali kanal va gruppalarga tarqatmang.

OMONATGA HIYONAT

QILMANG.